

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

Норматов Бекзод Ақром ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети,
Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология
фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги
Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна –
психология фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари
доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт
бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари
доктори, профессор, Ўзбекистон миллий
университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология
фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон
халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар
доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор,
Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар
доктори, доцент, Ўзбекистон миллий
университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари”** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Norbekov Ahmadjon Norbekovich

XX-ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'ZBEKISTONNING SIYOSIY -IJTIMOIY VA IQTISODIY

HOLATI 11-18

Eliboyev Ozodjon Po'lat o'g'li

BAQTIRIYANING KUSHONIYLAR DAVRI SHAHARSOZLIGI VA ME'MORCHILIGI..... 19-23

Нуритдинова Нодира Сирожовна

XX-АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ (СЕНАТОР К.К. ПАЛЕН

ТАФТИШ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА)..... 24-28

Чориев Шоҳрух Холтура ўғли

ЎРТА ОСИЁ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА САРОЙ АРХИТЕКТУРАСИ ИЖТИМОИЙ

СТРАТИФИКАЦИЯНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА 29-38

Жумаева Шоира Бердияровна

МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА

МУҚАДДАС ҚАДАМЖО ВА ЗИЁРАТГОҲЛАРНИНГ ЎРНИ 39-43

Jo'rayev Muxriddin Xasanovich

MOVAROUNNAHRLIK MUHADDISLARNING ILMIY SAFARLARI VA SAFAR YO'LLARI

GEOGRAFIYASI..... 44-51

Муқимова Рисолат Рустамжон қизи

ЗИЁРАТ МАРОСИМЛАРИДА ТАБИАТ КУЛЬТИ БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАР 52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Абдуллаев Алтинбек Янгибаевич

ДОННИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИ БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ

ИЛМИЙ – МЕТОДОЛОГИК ЁНДОШУВИ 57-69

Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna

MINAQALARDA FARMATSEVTIKA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI 70-75

Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA AGROBIOKIMYO XIZMATLARINI

TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI 76-86

Ибадуллаев Дилшад Ибрагимович

ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИНИ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИНИ

ЭКОНОМЕТРИК БАҲОЛАШ АСОСЛАРИ 87-92

Исламтудинова Дина Файзрахмановна

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН 93-102

Qobiljon Isaev

O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA (JST) A'ZO BO'LISHINI IQTISODIY

BAHOLASH 103-110

09.00.00 – FALSAFA FANLARI*Xaitov Elmurod Bekmurodovich*

O'ZBEKISTONDA "AHOLI HAYOT SIFATI"GA ASOSIY YONDOSHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) 111-116

Расулов Зоҳиддин Усарович

СПОРТ ЭСТЕТИКАСИ: РИТМ, ХАРАКАТ ВА МАДАНИЯТНИНГ УЙЎНЛИГИ 117-122

Тавмурадов Жамшид Элмурадович

АБДУЛҚОДИР БЕДИЛНИНГ ҲАЁТ ЙЎЛИ: ФАЛСАФА ВА АДАБИЙ МЕРОС 123-128

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

YUSUF QORABOG'IIY SHAXSIYATI VA FALSAFIY-ILMIY MEROSI 129-132

Muxtorova To'tixon Solijonovna

FALSAFA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: METODLAR VA AMALIYOTLAR 133-137

Akramov G'iyosiddin Najmiddinovich

MARGINALLASHUV TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI 138-142

Ahmedova Dilrabo

DINIY BAG'RIKENGLIKNING YOSHLAR IJTIMOIIY, MA'NAVIIY QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMOIIY POTENSIALI 143-150

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Abdunabiyev Sunnat Botirovich*

IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIIY SHAXSLAR NOMINING TARJIMADA BERILISHI 151-159

Seytnazarova Injayim

ADABIYOTSHUNOSLIK SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAHLILI 160-168

Tukhtakhodjaeva Zulfiya

PHRASEOLOGY AS A SUBSYSTEM OF THE ENGLISH VOCABULARY 169-174

Abdusalamov Doniyor Togayali ogli

REFLECTION OF THE CONCEPT OF «POLITENESS» IN THE PHRASEOLOGICAL AND PAREMIOLOGICAL RESERVOIRS OF THE COMPARED LANGUAGES 175-179

Axmedov Anvar Botirovich

TILNING NOMINATSIYA TIZIMIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR 180-184

Aminov Farrukh Komiljon Ugli

THE EVOLUTION OF MEDIA DISCOURSE: FROM TRADITIONAL FORMS TO MULTIMODAL REPRESENTATIONS IN DIGITAL SPACES 185-193

Sharipov Bobur Salimovich

RETSIPROKLI SEMANTIK DERIVATSIYA 194-201

Abduganiyeva Zebuniso Abduhafizovna

ILMIY DISKURSNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 202-205

Samatov Farxod Muminovich

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA "TV" SEMANTIK MAYDONI LEKSIK BIRIKLARINING SO'Z YASALISH XUSUSIYATLARI (ABBREVIATURALAR MISOLIDA) 206-210

Kendjayeva Zemfira

METAFORIK POLISEMIYANING LINGVISTIK YUMORI..... 211-216

Abdullayeva Nilufar Ramazonovna, Uzoqova Durdona Baxtiyor qizi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA «HID», «IS» KONSEPTINING SEMANTIK TAHLILI 217-221

Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi

ALISHER NAVOIYNING "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI VA SULAMIYNING "TABAQOT US-SUFIYA" ASARLARI O'RTASIDAGI MUSHTARAKLIKLER 222-226

Шарапова Лола Станиславовна

ИЛЛЮЗИЯ И РЕАЛЬНОСТЬ В КОНТЕКСТЕ МАГИЧЕСКОГО РЕАЛИЗМА..... 227-232

Ҳакимова Мастура Файзиллаевна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ МИЛЛИЙ ДУНЁ ТАСВИРИНИ АКС ЭТИШДАГИ АҲАМИЯТИ ВА ЛЕКСИК МАЪНОНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (КЕНГАЙИШИ) 233-239

Mo'soyeva Hayitgul O'roqovna

"HEART" – "YURAK" SO'ZLI METAFORALARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOGNITIV TAHLILI 240-245

Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TEZ AYTISHLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI 246-250

Багаутдинова Ильмира Салаватовна

ВЛИЯНИЕ РОДНОГО ЯЗЫКА НА ПРОИЗНОШЕНИЕ В ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ 251-255

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Nuraliyev Oyatillo Abduvaliyevich

EFFECTIVE PRACTICES FOR DRAWING YOUNG TALENT TO UZBEKISTAN'S PUBLIC CIVIL SERVICE 256-268

Алиев Асилбек Кадирович

ВОПРОСЫ ОТГРАНИЧЕНИЯ МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ И ГРУППОВОГО ХУЛИГАНСТВА 269-275

Hong Weixing

INTERNATIONAL LAW AS THE FOUNDATION FOR THE DEVELOPMENT OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA 276-284

Султанова Сабохат Алишеровна

ПЕРСПЕКТИВЫ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ ОЦЕНКИ РЕГУЛЯТОРНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН 285-290

Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi

O'ZBEKISTONNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI 291-298

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ПРЕВЕНТИВНАЯ ФУНКЦИЯ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ 299-304

Khalikov Khayot

THE ROLE OF MODEL UNITED NATIONS IN SHAPING GLOBAL LEADERS AND LAWYERS: A CASE STUDY ON UZBEKISTAN'S YOUTH 305-311

Даулетова Динара Даулетовна

ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ХИЩЕНИЮ ЧУЖОГО ИМУЩЕСТВА.. 312-317

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Толипов Бахтиёр Хамитович

БЎЛАЖАК ИҚТИСОДЧИЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ВОСИТАЛАРИ 318-324

Собирова Гулибарно Зайнитдин қизи

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА 325-335

Xolmatova Ziroatxon Anvarovna

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TASHXISLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATION-METODOLOGIK YONDASHUVLAR 336-339

Abduxoliqov Sardor Safarovich

YOSH DZYUDUCHILARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI
O'YINLARNING O'RNI 340-344

Usmonova Mohizoda Avazjon qizi

GLOBOL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI 345-348

Xodjiyeva Zumrad

MEZONLARGA ASOSLANGAN BAHOLANISHNING CHEKLANGAN DOIRASI 349-352

Turdiyev Ismoil Allayorovich

OLIY TA'LIM HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI
HAQIDA 353-358

Ibadullaev G'ayrat Akmuradovich

BO'LAJAK FIZIKA-ASTRONOMIYA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODLARI 359-364

Ishonkulov Sherali Sharifovich

TALABALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA RAQAMLI
DASTURLARDAN FOYDALANISH 365-372

Raxmatov Rafik G'ayratovich

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR RIVOJLANISHIDA TURMUSH TARZINI
SOG'LOMLASHTIRISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI 373-378

Xalmuratova Shaxnoza Bekmurzaevna

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING RISKOLOGIK MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI 379-383

Meliboyeva Nodira Qaxramanjanovna

MIRSODIQ TOJIYEV MEROSI (CHANG UCHUN YARATGAN ASARLARI MISOLIDA) 384-387

Qodirov Mirjalol Tolmasovich

TA'LIMDA GIPERMATNLI AXBOROT MODELLARINI QURISHNING ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALARI VA ASPEKTLARI 388-392

Karimova Aziza

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SCAMPER TEXNIKASI ORQALI BOLALARNING KREATIV
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA O'RGATISH METODIKASI 393-399

Nishonov Nodir Alimjanovich

BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA FUTUROLOGIK TAHLIL QILISH KO`NIKMALARINI

RIVOJLANTIRISHNING MUHIM ASPEKTLARI 400-404

Xidirova Durdona Muxtorovna

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O`QUVCHI QIZLARNI IJTIMOIMADANIY

MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEKANIZMLARI 405-408

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 10 December 2024**Accepted:** 15 December 2024**Published:** 25 December 2024*Article / Original Paper***TRANSLATION OF NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN IBN BATTUTA'S
"TRAVEL NOTE"****Abdunabiyev Sunnat Botirovich**Lecturer of Arabic Language, Department of Oriental Languages, University of World Economy
and Diplomacy

sabdunabiev@uwed.uz

Abstract. It is known that nationalism and original words are one of the important tasks in the translation of a historical work. Specific words are an integral part of the language of the work, with the help of which the author creates the image of the hero, describing the nationality of the people. They express the national flavor of a work of art, perform various stylistic functions, and help to accurately and accurately describe the nature of events and objects. That is why realities are aspects of literary-historical translation that torment the translator, complicate translation and often confuse him. There is also the assignment of personal names and nicknames when translating historical works into national words. In this article, we can see how The Journey of the famous Arab traveler Ibn Battuta provides detailed information on historical figures in the original Arabic language, as well as translations into Turkish and Uzbek languages, as well as the translation abilities of translators.

Keywords: "Tukhfat an-nuzzar fi garaib al-amsar va ajaib al-asfar", İbn Battûta Seyahatnâmesi, رحلة ابن بطوطة, Buzanuglu, nationality, reality

**IBN BATTUTANING «SAYOHATNOMA» ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR
NOMINING TARJIMADA BERILISHI****Abdunabiyev Sunnat Botirovich**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Sharq tillari kafedrası arab tili o'qituvchisi

sabdunabiev@uwed.uz

Annotatsiya. Ma'lumki, tarixiy asar tarjimasida milliylik va xos so'zlar muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xos so'zlar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi". Shuning uchun ham realiyalar badiiy-tarixiy tarjimaning tarjimonni qiynab qo'yadigan, tarjimani murakkablashtiradigan, ko'pincha uni chalg'itadigan jihatlarini tashkil etadi. Milliy xos so'zlarga tarixiy asar tarjimasida kishi nomlari va laqablarining berilishi ham mavjud. Mazkur maqola orqali biz mashhur arab sayyohi Ibn Battutaning "Sayohatnoma" asarida kelgan tarixiy shaxslarning asl arab tilida, shuningdek, turk va o'zbek tillariga o'girilgan tarjimalarda tarixiy shaxslar qanday berilganligi hamda tarjimonlarning tarjima mahoratlari haqida to'laqonli ma'lumotlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: "Tuhfat an-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfor", İbn Battûta Seyahatnâmesi, رحلة ابن بطوطة , Buzano'g'li, milliylik, realiya

Kirish. Hozirgi kunda O'rta Osiyo respublikalarida yashovchi xalqlar tarixini hamda tarixiy geografiyasini, shuningdek madaniyat, san'at tarixi va ijtimoiy-siyosiy hayotning boshqa sohalarini tadqiq qilishda arab geografik adabiyoti obidalarining ahamiyati kattadir. Mualliflari turli xalqlarga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, ular ma'lum an'ana, hamda ustuvor davomiylik vositasida asrlar va mamlakatlar osha o'zaro mahkam bog'langan, arab tilida yozilgan asarlarning keng miqyosli jamuljamidan iborat. IX asrga oid al-Balazuriy, Ibn Hurdodbeh, al-Ya'qubiy, X asrga oid al-Istahriy, Abu Dulaf, al-Muqaddasiy, al-Mas'udiy, al-Xorazmiy, al-Dinovariy, al-Tabariy, Ibn Miskavayh, Ibn Rust, Ibn al-Faqih, Ibn Havqal kabi allomallarning asarlari shular jumlasidandir [11, 3]. XI asr buyuk al-Beruniy asarlarida namoyon, XII asrdan al-Idrisiy, Marvaziy va as-Sam'oniyy qo'lyozmalari saqlangan, XII – XIII asrlardan Ibn al-Asir, Yoqut al-Hamaviy, XIV asrdan esa al-Umariy va Ibn Arabshoh guvohlik beradilar. Hozirgi zamon olimlari O'rta Osiyo, Kavkaz va Rusiyaning Ovrupo qismida yashovchi xalqlarning tarixiy va madaniy taraqqiyoti manzaralarini tiklashda mana shu va shunga o'xshash boshqa tarixchilar qoldirgan boy merosga tayanadilar.

Ushbu sahifalarda tadqiq qilinayotgan "Ibn Battuta sayohati" (XIV asr) arab sayyohlari qoldirgan yozma yodgorliklar orasida alohida o'rin tutadi. "XIII – XIV asr koinot tavsiflari va qomuslaridan keyin, - deb yozadi I.Yu. Krachkovskiy, - umummusulmon yozma adabiyoti o'z avj nuqtasini topadi... sayohatnoma janri miqdor jihatidan uzluksiz boyib boradi, bu o'rinda yana e'tiborga loyiq joyi shuki, barcha musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan so'nggi buyuk sayyoh ham XIV asrga mansub. U ham bo'lsa mashhur Ibn Battutadir. Uning sayohatnomasi arab makotablarida hanuz o'qitilmoqda... Oltin O'rda yoki O'rta Osiyo haqida biron asar yo'qki, bu zot tilga olinmagan bo'lsa..." [11, 4].

O'rta Osiyo tarixining kam o'rganilgan davrlari haqida Ibn Battuta qoldirgan ma'lumotlarning muhimligiga boshqa sharqshunoslar ham ko'plab e'tibor berganlar. Ibn Battutaning shaxsiy taassurotlariga asoslangan qiziqarli yozmalari (asarining to'la nomi – *"Tuhfat an-nuzzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfor"*dir) tarixning o'sha davr mahalliy solnomanavislari tomonidan qayd etilmagan ko'p joylarini to'lg'azadi. Sayyoh XIV asr birinchi yarmidagi O'rta Osiyo madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotining yorqin, haqqoniy manzaralarini chizadiki, bu bizning qiziqishimizni yanada oshiradi. Ibn Battutaning o'sha davr O'rta Osiyo shaharlari va shahar hayoti haqidagi taassurotlari boshqa manbalarda sira o'xshashi yo'q hikoyalardir. Ibn Battutaning sayohati O'rta Osiyo xalqlari hayotida eng murakkab va og'ir vaqtlarga – mo'g'ullar istilosi davriga to'g'ri keladi. Arab sayyohi bu erlarga mo'g'ul bosqinidan yuz yilcha keyin etib kelgan bo'lsa ham, bir zamonlar yashnab yotgan ellarning og'ir yaralari hali batamom tuzalganicha yo'q, shahar vayronalari, har qadamda bilinib turar ediki, "Sayohatnoma"da bular yorqin ifodalangandir. Akademik B.G'. G'afurovning ta'kidlashicha, "Mo'g'ul istilosi O'rta Osiyo xalqlariga bitmas-tuganmas musibatlar keltirdi. Talon-taroj va yong'inlar oqibatida Movarounnahr shaharlari er bilan yakson bo'ldi, mehnatkash aholi qatli omga duchor etildi. Qishloq xo'jaligi besamar tushkun holatga keldi." [5, 20]

Maqsad va vazifalar: Ibn Battutaning «Sayohatnoma» asarida tarixiy shaxslar, podshoh va hokimlar, vaziri ulamolar va boshqa insonlarning ham arab, ham turk va o'zbek tillariga o'girilgan tarjimalarda qanday kelganligini ochib berishdan iborat.

Usullar: Maqolani yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy asarni kompleks tahlil qilish, tasniflash metodlaridan foydalanilgan.

Asosiy qism. Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asarida sayyoh O’rta Osiyoga tashrif buyurar ekan, u yerning urf-odatlarini, an’analari, amir va maliklar bilan uchrashuvlari, buyuk olim va fuqarolarimizning qabrlarini ziyorat qilishi uning O’rta Osiyoga bo’lgan qiziqishini yanada orttiradi. Ibn Battuta O’rta Osiyodagi amir va maliklar bilan uchrashadi va o’z asarida ularning nomlarini aniq berib o’tadi. Asarning ushbu bobi tarjimalarida sharqshunos olim va tarjimonlar asl nusxada berilgan shaxslarning nomlarini aniq izohlar bilan keltirib o’tishadi va ular o’z ona tillariga qanday tarjima qilganlarini ko’rib chiqamiz.

I. Timofeevning “Ibn Battuta” [17, 40], Qohirada nashr etilgan [15,102] بطوطة "رحلة ابن Ne’matilla Ibrohimovning “Ibn Battuta va uning O’rta Osiyoga sayohati” [11, 6] hamda Ahmad Sait Aykutning “İbn Battûta Seyahatnâmesi” [1,10] nomli kitoblari tarjimalarida tarixiy shaxslar, xususan, amir va podshohlarning nomlari turlicha tarjima qilingan.

Ibn Battuta Xorazmga safari chog’ida, Xorazm amiri Qutludumur mamnuniyat bilan sayyohni kutib oladi. [Qutludumur], قطلودمور
(Qutludumur (Qutlug’ Temur) hijriy 721 (mil. 1321) yilda Xorazmga noib etib tayinlangan). I. Timofeev uni “Kutlug-Timur” deb tarjima qiladi. Ibn Battuta unga quyidagicha izoh beradi.

هذا الأمير ابن خالة هو الأمير قطلودمور و معنى اسمه الحديد المبارك. لأن قتلوه هو المبارك و دمور هو الحديد. و [15,268] السلطان المغظم محمد أوزبك، و أكبر أمرائه، و هو واليه على خراسان.

U ulug’ amir Qutludumurdur. Qutludumur “qutlug’ temir” degani. Bu amir ulug’ sulton Muhammad O’zbek xolasining o’g’li va uning eng buyuk amiridir. Qutludumurning o’zi sultonning Xurosondagi voliyasi hamdir. Xorazmdagi madrasa va unga tutash boshqa imoratlarni mazkur amir qurdirgan. (N. Ibrohimov tarjimasi). Turk tilida shunday ta’riflangan: Huvârezm beyi, Büyük emir Kütlü Dümûr’dur. İsmnin anlamı “hadîd-i mübarek”tir. Çünkü “kutlû”, mübarek [=kutlu] anlamına geliyor, dümûr ise hadîd [=demir] manasındadır. Bu adam Sultan Muhammed Uzbek’in teyze oğludur ve onun emirlerinin en büyüğüdür. Daha önce Horasan valisiydi. Ziyaret ettiğim medreseyi ve çevresindeki yapıları o yaptırmış. [1,588]

Tarjimon ushbu amir, ya’ni Qutlug’ Temurga quyidagi sharhlarni berib o’tadi. Ibn Do’qmoqning aytishicha, Qutlug’ Temur hijriy 721 (mil. 1321) yili voliy (noib) qilib tayinlangan va u erda doimiy yashagan. [18, 328] Ibn Haldunning yozishicha, Qutlug’ Temur 1321 yilda Qrim viloyati noibligidan bo’shatilib, Xorazmga yuborilgan. 724 (1328) yilda Qrimga noib qilib tayinlangan. [18, 387] Mirhondning yozishicha, Qutlug’ Temur 763 (1361) yilda vafot etgan. Ammo, A.Yu.Yakubovskiy bu fikrni noto’g’ri deb hisoblaydi: “Chunki Qrimda O’g’iz degan joydagi tosh lavhada “Bu quduq buyuk amir Qutlug’ Temurbek farmoni bilan... 765 (1368) yilda bino etilgan”, deb yozilgan. A.Yu.Yakubovskiy ko’rsatgan manba: Usmon Oq-ko’kroqli. “Ko’hna Qrim va o’g’iz bitiklari”dir. [18, 388] Shu jumla tarjimasidan ko’rinib turibdiki, tarjimonlar faqat aniq tarjima qilish bilan emas, balki sayyoh Ibn Battuta uchrashgan har bir amir va podshohlarning tarixini ham diqqat bilan o’rganib chiqqanligini ko’rishimiz mumkin. Bu esa tarjimaning mukammalligini belgilaydi.

Shundan so’ng Ibn Battuta mashhur allomalarning qabrlarini ziyorat qiladi. Xorazmda eng buyuk avliyolardan biri bo’lmish Najmuddin al-Kubro qabriga tashrif buyuradilar. Ibn Battuta amir saroyida bir muddat turadi, so’ngra u Buxoroga yo’l oladi. Buxoroda muhaddislar imomi bo’lgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy qabrini ziyorat qiladi. Tarjimada ushbu shaxslarning nomi arab, rus, o’zbek va turk tillarida aniq zikr etilgan. Buxoroni tark etib,

Movarounnahr sultoni, Chingizxon avlodidan bo'lgan xudojo'y sulton Alouddin Tarmashirin qarorgohi tomon yo'l oladi. علاء الدين طرمشیرین [Tarmashirin] N.Ibrohimov va I.Timofeev kitoblarida ham huddi shunday tarjima qilingan. Ibn Battuta unga shunday izoh beradi:

و هو السلطان المغظم علاء الدين طرمشیرین. و هو عظیم المقدار كثير الجيوش و العساكر ضخمة المملكة شديد القوة عادل الحكم، و بلاده متوسطه بين أربعة من ملوك الدنيا الكبار، و هم ملك الصين و ملك الهند و ملك العراق و الملك أوزبك. و كلهم [15, 270] يهابونه، و يعظمونه و يكرمونه.

Bu ulug' sulton Alouddin Tarmashirindir. U qudratli hukmdor, qo'shini ham nihoyatda ko'p bo'lib, juda katta mamlakat ustidan hukmron, o'zi baquvvat va adolatli odam. Mamlakati jahonning to'rt ulug' podshosi: Xitoy podshosi, Hindiston podshosi, Iroq podshosi va O'zbekxon mulklari o'rtasida joylashgan. Hamma Tarmashirindan qo'rqib, uni izzat-hurmat qiladi (N.Ibrohimov tarjimasini). A Sait. Aykutning "İbn Battûta Seyahatnâmesi" asaridagi sultonga berilgan ta'rifning turkcha tarjimasini keltirib o'tish mumkin:

Ulu sultan Alâeddîn Tarmaşîrîn'dir. Büyük bir güce, kalabalık ordulara, geniş bir ülkeye sahiptir. Sevilen sayılan, adaletli bir hükümdardır. Ülkesi dünyanın dört büyük hükümdarının ülkeleri arasında bulunuyor; Çin, Hindistan, Irak ve Uzbek hükümdarlarından bahsediyorum. Onlar Tarmaşîrîn'e çok saygı gösteriyor ve hediye gönderiyorlar. [1, 597]

N.Ibrohimov bu hukmdor haqidagi ma'lumotlarni to'ldirib, Tarmashirin ismi buddaviycha Dharma-shila, ya'ni "Budda qonunlariga amal qiluvchi" degan ma'noni anglatishi, U islomni qabul qilgandan so'ng ko'chmanchi hayot tarzidan chekingani sababli Chig'atoy ulusi sharqidagi ko'chmanchi mo'g'ullar unga qarshi isyon ko'targanligi va uni o'ldirganligi shundan so'ng Chig'atoy xonlarining qarorgohi Ili daryosi sohiliga ko'chirilganligi haqida sharhlar keltirgan

Sayyoh Ibn Battuta sulton Tarmashirindan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan "Buzun" (to'g'rirog'i Buzan) ismli sulton haqida ham zikr etib o'tgan:

"و بعد سنتين من وصولي الى أرض الهند بلغنا الخبر بأن الملاء من قومه أمرائه إجتمعوا بأقصى بلاده المجاورة للصين و هنالك معظم عساكره، و بايعوا ابن عم له اسمه بوزن أغلي و كل من كان من أبناء الملوك فهم يسمونه أغلي". "و بوزن أغلي كان مسلماً إلا أنه فاسد الدين سيء السيرة. و سبب بيعتهم له و جلعه لطرمشيرين أن طرمشيرين خالف أحكام جدهم تنكيز اللعين الذي [21,133] خرب بلاد الإسلام و قد تقدم ذكره"

Tarjimon ushbu jumalarni quyidagicha tarjima qilgan: "Hind tuprog'iga qadam qo'yganidan ikki yil o'tgach, shunday bir xabar eshitdim: sultonning xeshlari va amirlari Xitoy bilan chegaradosh uzoq viloyatga uning ko'pchilik qo'shini turgan joyga to'planib, sultonning Buzun ismli o'g'liga qasamyod etganlar. U erda shahzodalarni "o'g'li" deb atashadi".

"Buzano'g'li (**Buzan – Movarounnahr sultoni (1335-1338)**) – musulmon bo'lib, ammo imoni sust, ahloqi buzuvchi odam edi. Unga qasamyod qilib, Tarmashirinni ag'darganlarining sababi shunda ediki, sulton o'z bobosi – yuqorida aytganimdek, musulmon mamlakatlarini xonavayron etgan la'nati Chingizning vasiyatlarini bajarmagan". [9, 123]

Tarjimon jumlalarda keltirilgan har bir shaxs ismlariga diqqat qaratgan. Ibn Battuta shaxslarga ta'rif berar ekan, ularni tarixda qanday inson bo'lganliklarini tarixchi olimlarning kitob va risolalaridan o'rganib chiqqan.

Yuqoridagi jumlalarining birida Ibn Battuta "تنكيز اللعين" – "Tingizi la'in", ya'ni "la'nati Chingiz" iborasini ko'p ishlatib, Chingizxonga shunday sifat beradi. Tarjimonni sharhiga ko'ra, Ibn Battuta Chingizxondan keyingi mo'g'ul hukmdorlaridan birontasiga (hatto musulmon bo'lmasa-da) bunday baho bermaydi.

Bundan tashqari Ibn Battuta ushbu sultondan avval mamlakatni boshqargan boshqa Chingizxon avlodi vakillarini ham o'z asarida keltirib o'tadi. الجكطي [Al-Jakatoy] (***Ibn Battuta 1326 yilda bir necha oy hukmronlik qilgan amirning ismini shunday ifodalaydi.***) asl ismi El-Jigidoy bo'lib, Ibn Battuta uni Al-Jakatoy deb ataydi. Buning nazdida esa I.Timofeev, N.Ibrohimov va A.Sait. Aykutlar uni o'z holicha Al-Jakatay deb tarjima qilishgan. U otashparast hukmdorlardan hisoblangan.

Ibn Battutaning "Sayohatnoma"sida bir qancha hikoyatlar ham keltirilgan bo'lib, bu hikoyatlar asarning adabiy ahamiyatini yanada oshiradi. Masalan, uning Kabakxon haqidagi hikoyati Ibn Battuta uslubiga va umuman diniy munoqiblarga xos bu hikoyatda ma'jusi hukmdorlarning musulmon fuqaroga hayrixohligi va g'amxo'rliqi tasvirlanadi. Kabakxon haqidagi yana bir diniy rivoyatlarga yaqin turadigan ibratli hikoyat bo'lib, u o'zining mazmunan soddaligiga qaramay, yuqoridagi hikoyat kabi fuqaroparvarlik ruhida yozilgan كيك [Kabak] (***Kabak – Ko'beg (ko'ppak), it ma'nosida. Chig'atoy xonlaridan biri bo'lgan Kabakxon (Kapak-xon) Muborakshohdan (1266) va Baroq-xondan keyin (1266-1270) ikki marta, 709 (1309) va (1318) dan 726 (1326) yilgacha hukmronlik qilgan***) I.Timofeev tarjimasida Kebek deb berilgan. Kabak ham g'ayridin, ammo o'z raiyatiga adolatli, musulmonlarni hurmat qiladigan kishi bo'lgan deb izoh beradi Ibn Battuta o'z asarida. رحلة ابن بطوطة risolasida Kabakxon bilan voiz o'rtasida quyidagi so'hbat bo'lganligi yozilgan:

يذكر أن هذا الملك كيك كان تكلم يوماً مع الفقيه الواعظ المذكر بدر الدين الميداني فقال له: أنت تقول: إن الله ذكر كل شيء في كتابه العزيز. قال: نعم. فقال: هو في قوله تعالى "في أي صورة ما شاء ركبك" فأعجبه ذلك. وقال: بخشي، ومعناه بالتركية جيد. فأكرمه إكراماً كثيراً و زاد في تعظيم المسلمين.

N.Ibrohimov o'z kitobida quyidagicha tarjima qilgan: Aytibdurlarki, bir kuni Kabak-xon faqih, voiz, muzakkir Badruddin al-Maydoniy bilan suhbatda undan: "Sen aytasanki, Alloh o'zining aziz Kalomida hamma narsani zikr qilgan, shundaymi?" – deb so'rab qolibdi. "Ha, shunday", - debdi voiz. "Qani, undagi mening nomimni ko'rsat-chi?" – debdi Kabak-xon. "Sizning nomingiz Alloh taoloning mana bu so'zlarida zikr etilgan:" "Fi ayyi suratin mo shoa rak-kabak" ("Alloh seni o'zi istagan suratda yaratdi") [9, 396] , - deb javob beribdi voiz. Bu podshohga ma'qul tushib, "Yaxshi", - debdi. Shundan so'ng Kabak-xon voizga va barcha musulmonlarga avvalgidan ham yaxshiroq lutfu marhamat, g'amho'rlik ko'rsata boshlabdi.

Turk tilidagi tarjimasini: *Anlatıldığına göre Kebek bir gün Fakih Vâiz Bedreddîn Meydânî ile sohbet ederken soruverin*

"Sen diyorsun ki Hak Teâlâ her şeyi Ulu Kitabında anmış öyle mi?" Vâiz de;

"Evet!" cevabını verir. Kebek tekrar sorar:

"Öyleyse benim ismim bu kitapta nerede?" Vâiz cevap verir.

"Bu isim, Hak Teâlâ'nın şu âyetinde: Fî ayyi sûretin mâ şâe rakkebek!"

Kebek hayretler içinde kalır ve şöyle der:

"Yahşî!" Bu kelime, Türk dilinde "ceyyid" [iyi, çok iyi] demektir. Böylece ona armağanlar yağdırıyor, Müslümanlara karşı hürmeti artırıyor. [1, 597]

Ushbu amalga oshirilgan tarjimalarni ko'rsak, tarjimon mutaxassisshunoslar tarjima uslubi va qoidalariga katta darajada ahamiyat berganlar.

Tarjimonlar bu jumlaning tarjima qilishda ko'pgina qoidalarga e'tibor bergan:

Birinchidan, jumla asliyatga mos tarzda tarjima qilingan. Tarjimon o'sha davr ruhiyatiga tushgan. Tarjima dialog (suhbat) asnosida shakllangan hamda bu jumla tarjimasida gap qurilishlari va shakl to'g'ri berilganligini ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, ushbu jumlada Qur’oni Karimdan oyat keltirilgan. Tarjimon faqat oddiy tarjima bilan emas, balki Qur’oni Karim oyatlari tarjimasiga ham katta e’tibor bergan. Ya’ni muqaddas Qur’oni Karimning tarjimalarini sinchkovlik bilan ko’rib chiqqan.

Ibn Battuta shu tariqa Balxga etib boradi va u erda Ukkosha ibn Mihsan al-Asadiy degan avliyoning qabrlarini ziyorat qiladi. I. Timofeev va N. Ibrohimov tarjimalari aynan o’z xolicha qolgan. عكاشة بن محسن الاسدي [Ukkosha bin Mihsan al-Asadiy] atoqli sahobalardan biri bo’lib, Badr, Uhud va boshqa janglarda ishtirok etgan. Abu Bakr (r.z.) halifalik davrida ridda urushlaridan birida Tulayha ibn Huvaylidga qarshi jangda halok bo’lgan. Balxdan tashqari, Turkiston shahrida ham Ukkosha (r.z.)ga nisbat beriladigan qabr mavjud. أبو حامد الغزالي [Abu Homid G’azzoliy] – (1059-1111) atoqli musulmon olimi, ilohiyotchi, mutasavvif, faylasuf. Tusda tug’ilib, Nishopurda o’qigan, saljuq sultonlari vaziri Nizomul-mulkning shogirdi va yaqin do’sti, Bag’doddagi Nizomiya madrasasining mudarrisi. Shom, Misr, Falastin, Makka va Madinaga safar, sayohat qilgan. Eng mashhur asari: “Iyho al-ulum-ad-din” (“Diniy ilmlarning tiklanishi”).

[Abu Havs Umar an-Nasafiy] – musulmon huquqshunos olimi (faqih) “To’rt mazhab faqihlari o’rtasidagi bahsli masalalar haqida risola” asarining muallifi. Bu asarda molikiya, hanbaliya, shofiiya va hanafiya mazhablaridagi farq, tafovutlar bayon qilingan.

Yuqorida keltirilgan tarixiy shaxslarning ismlari sharqshunos olim va tarjimonlar tomonidan aniq, xatosiz berilgan. Tarjimonlar bu shaxslarga alohida to’xtalib o’tmaganlar, chunki ushbu tarixiy ismlarni tarjima qilish muammo tug’dirmagan.

Ibn Battuta Beshoy tog’idagi zohid shayx Avliyo Ota ziyoratgohiga keladi. أطا أولياء, أبو الأولياء [Avliyo Ota] I. Timofeev buni Ata-Avliya deb tarjima qiladi. Uning forscha nomi ham bo’lib, سيصد صاله [“Sesad sola”] ya’ni “Sesad” – uch yuz, “sola” – yil degani. Mazkur avliyo uch yuz ellik yil umr ko’rgan. Ibn Battuta bu ulug’ shayxga shunday ta’rif beradi. Xalq uni g’oyat e’zozlaydi. Bu erga juda ko’p shahar va qishloqlarning odamlari shayxni ko’rishga keladilar. Bir qarashda uni ellik yoshda deyish mumkin. Aytishlaricha, har yili shayxning sochi va tishlari to’kilib, yangilari chiqarkan (N. Ibrohimov tarjimasini). A. Sait. Aykut o’zining “Ibn Battûta Seyahatnâmesi” asarida quyidagicha tarjima qilgan:

Sonra Şeyh Atâ Evliyâ’nın zaviyesinin bulunduğu Beşây dağına gittik. Atâ Türk dilinde baba demektir; evliyâ zaten Arapça. Böylece bu kelimenin anlamı “Allah dostlarının babası” demek oluyor. Bu adama Sîsâdsâle de denilir. “Sîsâd”, Farsça üçyüz demektir, “sâle” ise yıl anlamına geliyor. Onlar bu adamın üçyüzelli yaşında olduğunu söylüyorlar; onun hakkında güzel inançlar besliyorlar. Uzak yörelerden ona yöneliyor, buralara kadar yol tepiyorlar. Oraya gelenler arasında sultanlar ve zengin hatunlar da vardır. Onu gören elli yaşında zanneder! Her yüz senede saç ve dişlerinin eniden geldiği söyleniyor. [1, 633]

Mazkur tarjimalarda tarjimonlar asl nusxaga tayanib ish qilganlar. Ibn Battuta “Sayohatnoma”sida olim va diniy-so’fiy shaxslar haqida ham so’z yuritgan. Lekin u bu shaxslar haqida qisqa ma’lumot berib, faqat ularning nomlarini aytib o’tgan xolos. Bu asarni tarjimasini to’liq bo’lishi va kitobxonlar uchun aniq ma’lumotlar berish maqsadida tarjimon N. Ibrohimov bu tarixiy va diniy shaxslar haqida yozilgan ko’pgina o’rta asr va zamonaviy adabiyotlarni ko’zdan kechirgan, tahlil qilgan va ularga oid sharhlarni bayon etgan. Masalan, Ibn Battuta Xorazmdan chiqaverishda bir zoviya bo’lib, uni eng buyuk avliyolardan biri bo’lgan Najmiddin al-Kubro qabri uzra bunyod etishganligini bayon etadi. Tarjimon N. Ibrohimov bu so’fiy haqida

sharh keltirar ekan, avvalo uning to'liq ismini – Ahmad ibn Umar al-Hevaqiy deb keltirib, u Kubraviya tariqati – diniy jamoasining asoschisi, xorazmlik shoir, mutafakkir, avliyo deb nisbat beradi. Undan tashqari, tarjimon bu so'fiy haqida qaysi asarlarda ma'lumotlar keltirilganligini ham bayon etib o'tadi.

“Sayohatnoma”da Ibn Battuta Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy mozorini ziyorat qilganligi haqida ham xabar beradi. N.Ibrohimov esa, u inson O'rta Osiyolik buyuk alloma – faylasuf, adib, jug'rofiyun va shoir ekanligi, 1075-1144 yillarda yashaganligini sharhlab o'tadi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810-870) – 600.000 hadisni bilgan. Shulardan 7275 ta hadisni eng mo'tabar “al-Jomi' as-Sahih” hadislar to'plamiga kiritgan.

N.Ibrohimov “Sayohatnoma”da nomlari zikr etilgan Sayfiddin Boharziy (Sayful Haqq va ad-Din Abul Maoniy Sayyid ibnul Mutahhar ibn Sayyid Boharziy – buxorolik shayx, valiy (1190-1260), Yahyo Boharziy (Yahya ibn Burhon ad-Din Ahmad – mashhur shayx 712 (1312-13) yili Karmanadan kelib, Fathobodda Sayfiddin Boharziy zoviyasida yashagan. Vafoti 736 (1336) yil), musulmon huquqshunos olim (faqih) “To'rt mazhab o'rtasidagi bahsli masalalar haqida risola” asarining muallifi (bu asarda molikiya, hanbaliya, shofiiyya va hanafiya mazhablaridagi farq, tafovutlar bayon qilingan). Abu Havs Umar Nasafiy, payg'ambar Muhammad alayhissalomning as'hoblaridan biri Akkosh (Ukkosha) ibn Muhsin Asadiy, atoqli musulmon olimi, ilohiyotchi, mutasavvif, faylasuf. Tusda tug'ilib, Nishopurda o'qigan, saljuq sultonlari vaziri Nizomul-Mulkning shogirdi va yaqin do'sti, Bag'doddagi Nizomiya madrasasining mudarrisi. Shom, Misr, Falastin, Makka va Madinaga safar sayohat qilgan, “Ihyo al-ulum-ad-din” (“Diniy ilmlarning tiklanishi”) asarining muallifi, Abu Homid G'azzoliy (1059-1111), IX asr so'fiylaridan eng mashhuri Abu Yazid (Boyazid) Tayfur ibn Iso Bistomi (uning tarixiy hayoti haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan, ammo u haqida rivoyatlar juda ko'p), Balxlik mashhur darvesh, qalandar, umrining ko'p qismini Shomda o'tkazgan, podo'ohlikdan kechib, jismoniy, halol mehnat bilan turmush kechirgan, voizlik qilib, shaharma-shahar yurgan, Bizans (Vizantiya)ga qarshi g'azovot urushida 776-783 milodiy yillar orasida shahid bo'lgan Ibrohim ibn Adham kabi diniy-so'fiylar haqidagi ma'lumotlarni to'ldirib, ularning tug'ilgan va vafot etgan yillari, ular qanday jihatlari bilan mashhur ekanliklarini izohlab o'tgan.

Xulosa. Ibn Battuta “Sayohatnoma” asarining tili umuman olganda sodda hisoblanadi. Asarga o'zgacha ruhiyat bag'ishlagan qisqa jumlar va oddiy tasvirlar muallif qalamiga mansub. Muallif asarda ham nazmiy, ham nasriy ma'lumotlar keltirgan.

“Sayohatnoma” asarining o'ziga xosligi shundaki, muallif o'z asarida milliylikni kuchaytirgan. Muallif asarda keltirilgan har bir shaxsga, hududga alohida ma'lumotlar bergan.

Asarda xususan, Muqaddas Qur'oni Karimdan oyatlar muallif tomonidan keltirilgan. Asl matnda diniy so'z va iboralar, amir va donishmandlarning suhbatlari hamda turli hikoyalar bayon qilingan.

Asar asliyatga mos tarzda to'liq o'girilgan. Tarjimonlar iloji boricha matndagi uslubni saqlab qolishga harakat qilgan.

Ekvivalentlik hamda adekvatlikning darajalarini hisobga olib, tarjima qilinganligi bois tarjima normalari buzilmagan, ya'ni erkin va so'zma-so'z tarjimaga yo'l qo'yilmagan.

Tarjimonlar tarixiy asarni tarjima qilar ekanlar, o'z milliy adabiyotida uchramagan yangi sifatlar yoki janrga duch kelganida turk va o'zbek tillarining boy imkoniyatlaridan kelib chiqib, mazkur asarni tarjima qilgan va shu asardagi ruhiyat va uning asliyatdagi jarangidan boxabar

bo'lib, asarning jilosini va estetik zavq bag'ishlovchi bo'yoqdorligini saqlab qolgan. Bu esa, o'z navbatida, kitobxonlar uchun notanish tilda yozilgan asarning muallifi ijodiga nisbatan qiziqishning kuchayishiga olib kelgan.

Tarjimonlar tarjima qilish jaarayonida muallif oyatlarning boshlanish qismini berish bilan kifoyalangan holatlarga duch kelganda, ularni to'liq matnini bergan va izohini ilova qilgan. Fikrimizcha, tarjimaning bunday qilinishiga sabab XIV asr kitobxoni uchun oyatning boshlanishidagi 3-4 so'z etarli bo'lgan bo'lsa, XX – XXI asr kitobxonlari uchun bu albatta kamlik qiladi. Shu sababli tarjimon oyatlarni to'liq tarjima va izohlar bilan bergan. Fikrimizcha, bu tarjimaning yutug'i bo'lgan.

Адабиётлар/Литература/References:

1. A. Sait Aykut. İbn Battûta Seyahatnâmesi / Ebû Abdullah Muhammed ibn Battûta Tancî Özgün adı: *Rihletü İbn Battûta = Tuhfetü'tı-Nuzzâr fî Garâibi'l-Emsâr ve Acâibi'Î-Esfar*. Yapı Kredi Kültür Sanat Yayıncılık Ticaret Ve Sanayi. İstanbul. A: Ş., 2004.
2. Abdunabiev S. FEATURES OF THE GENRE «RIHLA»(TRAVEL STORY) IN ARABIC PROSE AND IT'S ROLE IN WORLD LITERATURE //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2024. – T. 5. – №. 04. – C. 28-34.
3. Arabskie geografi i puteshestvenniki. IRGO. 1937.
4. Bulgakov P.G. Svedeniya arabskix geografov IX – nachala X v. o marshrutax i gorodax Sredney Azii. Avtoreferat kand. dis. -L., 1954.
5. Gafurov B. G. Tadjiki. Drevneyshaya, drevnyaya i srednevekovaya istoriya. – M.: 1972. t. 1-2.
6. Hamroev H. Milliy xos so'zlar – realiyalar va badiiy tarjima // Tarjima madaniyati (Maqolalar to'plami). – T.: Fan, 1982.
7. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. -T.: Sharq, 1965.
8. Hasanov H. O'rta Osiyolik geograf sayyohlar. -T.: Fan, 1964.
9. Ibn Battuta Sayohatnoma “Tuhfat an-nuzor fi g'aroib al-amsor va ajoib al-asfor” – T.: Sharq, 2012.
10. Ibragimov N.I. «Puteshestvie» Ibn Battuty (perevody i publikatsii). – Voprosy vostochnogo literaturovedeniya i tekstologii. M., 1975.
11. Ibrohimov N.I. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. – T.: Sharq Bayozi, 1993.
12. Krachkovskiy I.Yu. Arabskaya geograficheskaya literatura. – Izbranniye sochineniya. T. IV. M. – L.: 1957.
13. Miloslavskiy G.V. Ibn Battuta. -M., 1974.
14. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005.
15. Rihlat Ibn Battuta. Al-Qohira, 1322,1904.
16. Sunnat A. Comparable features in the Works of Ibn Battuta and other contemporary travelers //Бюллетень науки и практики. – 2020. – T. 6. – №. 1. – C. 375-380.
17. Timofeev I. Ibn Battuta. -M., 1983.
18. Tizengauzen V.G. Sbornik materialov, otnosyashixsya k istorii Zolotoy Ordi. Izvlecheniya iz sochineniy arabskix. SPb., 1884
19. Xenning R. Nevedomiye zemli. -M.: 1962. III jild.

20. Абдунабиев С. Б. ИБН БАТТУТА ВА УНГА ЗАМОНДОШ БОШҚА САЙЁҲЛАРНИНГ АСАРЛАРИДАГИ МУШТАРАК ЖИҲАТЛАР //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 3.
21. كتاب رحلة ابن بطوطة المسماة "تحفة النظار في غرائب الأمصار و عجائب الأسفار". عمر حسين الخساب. (سنة 1322 هـ) 1904.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/10 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).